



Amina BARNAYEVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi
Feruza DAVRONOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: barnayevaamina@gmail.com

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, PhD R.Baratov taqrizi asosida

FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIIY KAPITAL HAMDA NNTLARNING O'RNI

Аннотация

Maqolada alohida ehtiyojli bolalarning inklyuziv ta'lim olishi uchun ijtimoiy kapitalning ahamiyatini tahlil qilinadi. Ushbu maqolaning maqsadi fuqarolik jamiyatini shakllantirishda uchinchi sektor, shuningdek, oila, mahalla va siyosiy partiyalarning rolini yoritishdan iboratdir. Nogironligi bo'lgan bolalarning jamiyatga moslashuviga ko'maklashish masalalari ham o'rganiladi. Maqolada ijtimoiy kapitalni rivojlantirish, fuqarolarning bu sohadagi faolligini oshirish hamda imkoniyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta'lim olishida davlat, nodavlat notijorat tashkilotlari va jamiyat o'rtasidagi hamkorlik ijtimoiy kapitalni mustahkamlashning asosiy sharti ekanligini haqida turli tahlillar va mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy kapital, inklyuziv ta'lim, fuqarolik jamiyati, oila, mahalla, NNT.

SOCIAL CAPITAL - AN IMPORTANT CRITERIA OF CIVIL SOCIETY: THE IMPORTANCE OF NGOs IN INCLUSIVE EDUCATION

Annotation

The article analyzes the importance of social capital for inclusive education of children with disabilities. The system of protection of the social community of the family, the role of the family and political parties in managing it, as well as issues of assisting children with disabilities in adapting to society, are also studied. The article presents various analyses and considerations on the main condition for the development of social capital in the social education of children, including the state, non-governmental non-profit organizations and society, as well as social development, monitoring the activity of personal life in this area, and social capital.

Key words: Social capital, inclusive education, civil society, family, neighborhood, political parties, NGOs.

СОЦИАЛЬНЫЙ КАПИТАЛ – ВАЖНЫЙ КРИТЕРИЙ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА: ЗНАЧЕНИЕ ННО В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В статье анализируется значение социального капитала для инклюзивного образования детей с особыми потребностями. Цель статьи – подчеркнуть роль третьего сектора, а также семьи, местного сообщества и политических партий в формировании гражданского общества. Также рассматриваются вопросы содействия адаптации детей с ограниченными возможностями здоровья в обществе. В статье представлены различные анализы и соображения по развитию социального капитала, повышению активности граждан в этой сфере, а также по поводу того, что сотрудничество государства, негосударственных некоммерческих организаций и общества в инклюзивном образовании детей с ограниченными возможностями здоровья является ключевым условием укрепления социального капитала.

Ключевые слова: Социальный капитал, инклюзивное образование, гражданское общество, семья, соседство, политические партии, НПО.

Kirish. Jamiyatda alohida e'tiborga, ko'makka ehtiyoji bor insonlar salmog'i anchagina. Mazkur qatlam uchun yartilishi kerak bo'lgan imkoniyatlar va imtiyozlarning darajasi davlatning ijtimoiy siyosati bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda nogironligi bor shaxslarning umumiy soni 1 miliondan ortiq bo'lib, ularning 173 mingdan ziyodi 18 yoshgacha bo'lgan bolalardir[1]. Bu esa har birimiz yashayotgan jamiyatda nogironligi bor bolalarning ta'limi va ijtimoiy integratsiyasi qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda nogironligi bor bolalarning ta'lim tizimida turli islohotlar olib borilmoqda. Ayni paytda 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan va 2008-yilda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonunini takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borildi. O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2017-yilda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha 2018-yil

20-iyulda Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalida joylashtirildi [2].

Bundan ko'rinib turibdiki davlatimiz imkoniyati cheklangan bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan teng sharoitda bo'lishlari uchun zarur imkoniyatlar yaratmoqda. Bu islohatlar jamiyatda ijtimoiy kapitalni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mazvuga oid adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy kapital konsepsiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan Garvard universiteti professori Robert D. Putnam fikricha, ijtimoiy kapital - bu uzoq tarixiy aloqalarga borib taqaluvchi insonlarning ijtimoiy hamkorligi an'analari bo'lib, bular o'zaro ishonch, ijtimoiy qadriyatlar, fuqarolarning turli nodavlat tashkilotlarda ko'ngilli ishtiroki hamda davlat va jamoat ishlarida fuqaroviy faollik kabi omillarda namoyon bo'ladi[4.12-bet].

Abu Rayhon Beruniy, inson o'zining himoyalanmaganligi va nochorligi sabab har doim qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'ladi, jamiyat esa mazkur yordamga va tayanchni ta'minlab beradi, degan fikrni ilgari suradi. O'z

manfaatlarini himoya qilish hamda boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun insonlar har doim bahamjihat yashashi darkor. "Ehtiyojlar juda ko'p va turli xil, faqatgina fuqarolik jamoasigina uni ta'minlashi mumkin, shuning uchun ham insonlar shaharlarga asos solishgan" deya ta'kidlaydi Beruniy[3].

XXI asr boshlarida M.Vulkok tomonidan ijtimoiy kapital nazariyasi bevosita qo'llaniladigan 8 ta ilmiy yo'nalishlar aniqlab berildi. Bular-oila; yoshlar; maktab; oliy ta'lim; mahalliy xamjamiyatlar xayoti; tashkilotlar faoliyati; demokratiya va boshqaruv masalalari; jamoalar faoliyati va iqtisodiy rivojlanishidir. Bugungi kunda, ushbu ro'yxatga immigratsiya, insonning jismoniy, ruhiy sog'lomligi, ijtimoiy foydali ishlar (fuqarolar faolligi) va boshqalarni ham kiritishimiz mumkin[3.18-bet].

Biz nogironligi bor bolalarga davlat imkoni qadar yordam berishini bilamiz. Ixtisoslashtirilgan bolalar maktablari borligi ham ma'lum. Shu bilan birga, sog'lom tengdoshlari bilan birga ta'lim olish imkoniyati ham yaratilgan. Bu orqali imkoniyati cheklangan bolalar jamiyatdan ajralmaydi, balki bilim olishda teng huquqiy sharoitga ega bo'ladi. Natijada sog'lom bolalarda tolerantlik shakllanadi. Maxsus inklyuziv ta'lim jarayoni tashkillashtirilgan va u toboro takomillashib bormoqda. Inklyuziv ta'lim jarayonida sog'lom bolalar nogiron tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim olish orqali ijtimoiy tajriba orttiradilar. O'zbekistondagi bunday ta'lim tizimi ijtimoiy kapitalni mustahkamlaydi. Fikrimizcha, nogironligi bor bolalarning jamiyatdan ajralib qolmasligi uchun faqatgina davlat emas, balki fuqarolar faolligi ham zarur. Fuqarollik, eng avvalo insonlarning "ko'ngilli" sifatida faoliyati bilan bog'liqdir. "Fuqarolik faolligi" atamasining tub mazmun-mohiyati Germaniyaning Anket-Komissiya (enquete-kommission) tashkilotining ma'ruzasida kengroq va batafsilroq yoritilgan. Unga ko'ra "fuqarolar faolligi" - shaxs tashabbuskorligi, intilishlari va xatti-harakatlar yig'indisi bo'lib, ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi, moddiy manfaatdorlik ko'zlanmaydi, ammo ijtimoiy ahamiyatga molik muammolarni hal qilishga qaratilgan yakka shaxs yoki guruhlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turi hisoblanadi[3.78-bet]. Shunday ekan, har bir 18-yoshga to'lgan shaxs ko'ngilli bo'la oladi. Jamiyatdagi katta muamolardan tortib, kichik muammolarni ham hal qilishda ko'maklasha oladi. Kamchiliksiz jamiyat bo'lmaganidek, bizning jamiyatda ham korruptsiya, tamagirlik, ekologik ifloslanishi, ta'limdagi kamchiliklar kabi muammolar mavjud. Bu muammolarning echimini faqat davlatdan kutish notog'ri. Fuqarolar faol bo'lishi, jamoatchilik fikri mavjud bo'lishi, jamiyatdagi muammolarga befarq bo'lmashligimiz zarur. Bu esa ta'lim muassasalarida davlatning kuch ishlatar organlari turmasligini ta'minlaydi. Shunda biz insonlarda davlatga va jamiyatga ishonchni o'rta olamiz. Bunda bizga siz-u bizning faolligimiz, shuningdek, bu faollikda tashkil topgan NNTlar ko'maklashadi va qanchalik ijtimoiy kapital mavjud ekannini ko'rsatadi.

Ijtimoiy kapital o'ziga xos va murakkab tushuncha bo'lib, u jamiyatda nomoddiy ko'rinishda namoyon bo'ladi va uni miqdor hamda sifat jihatdan o'lchash anchagina mushkuldir. Nazariyalarga ko'ra, ijtimoiy kapitalni o'lchashda beg'araz yordam, homiylik, volontyorlik, ko'ngillilik, NNTlarga a'zolik hamda boshqa normalarga, tamoyillarga qat'iy rioya qilish va boshqa omillar inobatga olinishi lozim [3].

O'zbekistonning yangi (yangilangan) Konstitutsiyasida ilk bor alohida "Fuqarolik jamiyati institutlari" bobiga joy ajratilgan (XIII bob). Undagi 69-moddada fuqarolik jamiyatining asosiy tarkibiy qismlari sifatida jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning o'zini o'zi

boshqarish organlari ko'rsatigan. Ularning faoliyati qonun asosida amalga oshiriladi. 70-moddada esa bu muassasalarning qanday shakllanishi, mazkur jamoat birlashmalarining shartli turi - siyosiy partiyalar, nogironlar tashkilotlari, kasaba uyushmalari, yoshlar va boshqa guruhlar haqida aniq belgilab qo'yilgan[5].

Inklyuziv ta'lim - har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'lim olishini ta'minlaydi moslashuvchan ta'lim dasturidir. Bunday jarayonda, albatta, ota-ona va psixologlar va maxsus mutaxassislar yordami zarur bo'ladi. Barcha bolalarni xavfsiz, qo'llab-quvvatlovchi va qabul qiluvchi muhit yaratish muhimdir. Inklyuziv ta'lim alohida e'tiborga muhtoj bolalarga nima beradi?

Bizningcha, o'quvchilar o'zaro muloqot qilish, bir-birini tushunish va qabul qilish orqali ijtimoiy ko'nikmalar rivojlantiradi.

O'quvchini kelajakda yuqori yutuqlar erishishga yordam berishi mumkin.

O'quvchilar o'rtasida hurmat hissi kuchayadi, chunki ular turli xil insonlar bilan ishlashni o'rganadi.

Jamiyatdagi insonlarning bir-biri bilan bog'liq va bir butun ekanligini anglash imkonini beradi.

Inklyuziv ta'lim murakkab jarayon bo'lib, u tegishli resurslar, malakali o'qituvchilar va jamiyatning qo'llab-quvvatlashini talab etadi. Davlatimiz bunga keng ko'lamli islohatlar olib bormoqda. Bizga ma'lumki, siyosiy jarayonlar va ijtimoiy hayotida uchta sektor mavjud: birinchi sektor - davlat, ikkinchisi - biznes yoki xususiy sektor, uchinchi sektor - nodavlat notijorat tashkilotlari. Nodavlat notijorat tashkilotlari deganda, jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy ravishda tuzilgan, faoliyati davomida faqat foyda olishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ymagan va olingan foydani uning ishtirokchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqaradigan tashkilot tushuniladi [3.62-bet].

Quyida inklyuziv ta'limni NNTning rivojlantirishda qanday yordam ko'rsata olishi haqida to'xtalamiz. Inklyuziv ta'lim bo'yicha qonunchilikni takomillashtirishga hissa qo'shishlari, xabardorlik oshirishlari va jamiyatda inklyuzivlikni targ'ib qilishlari mumkin. Ular ota-onalar va bolalarning huquqlarini himoya qilishda faol ishtirok etishadi. Ko'plab NNTlar maxsus ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan o'quv dasturlari, o'quv materiallari va o'qitish metodikalarini ishlab chiqishda yordam beradi.

Inklyuziv ta'limni yo'lga qo'yishga qaratilgan turli xil innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va amalga oshirishda faol qatnashadi. Hukumat organlari, ta'lim muassalari va manfaatdor tomonlar bilan yaqin hamkorlikda ish olib borib, inklyuziv ta'lim siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga hissa qo'shadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Fikrimizcha, NNTlar turli xil tadqiqotlar olib borib inklyuziv ta'limdagi muammolarni aniqlash, tahlil qilish, echim topish va monitoring qilishda muhim rol o'ynaydi. NNT a'zolari, o'zimiz bilganimizdek, turli kasblarga ega insonlar jamoasidan iborat bo'lib, yuqorida sanab o'tgan funksiyalari ijtimoiy kapitalni shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbekistondagi inklyuziv ta'lim bugungi kunda qanday holatda? NNTlar qanday rol o'ynamoqda? Bizga ma'lumki, O'zbekiston respublikasi 2021-yilda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonun inklyuziv ta'limni jadal rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi. Shu bilan birga, umumta'lim maktablarida inklyuziv sinflar tashkil etilmoqda va pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida yangi yo'nalishlar ochilmoqda. Bizning kuztishlar shuni ko'rsatadiki, hali qishloq joylarda inklyuziv ta'lim infratuzilmasi to'liq shakllanmagan. Masalan, moslashtirilgan sinf xonalari, panduslar va maxsus jihozlar

etishmaydi. Shuningdek, defektolog va logoped kabi mutaxassislar soni ham darajasida emas. Yangi O'zbekiston davrida esa inklyuziv ta'lim sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik kuchaymoqda. Xususan, UNICEF, UNDP va boshqa donorlar bilan qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda. Ular o'qtuvchilar malakasini oshirish va ta'lim muassasalarini jihozlashga qaratilgan.

Tahlil va natijalar. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda inklyuziv ta'lim rivoji nafaqat davlat siyosatiga, balki nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqorolik jamiyati institutlarining faol ishtirokiga ham bog'liqdir. Shu sababli, mahalla va ota-onalar qo'mitalarining rolini kuchaytirish zarur [6]. Darhaqiqat, biz oilaning ham, mahallaning ham o'rni ahamiyatli ekaniga ishonamiz. Chunki bola birinchi navbatda oilada ijtimoiylashadi. Ota-ona farzandining yangi muhitga moslashishida ko'maklashishi lozim. Unga ma'naviy, moddiy va ruhiy yordam berishi lozim. Sog'lom tengdoshlari ota-onasi esa farzandlariga do'stlariga nisbatan bag'rikeng bo'lishi va ko'maklashish haqida tarbiya berishi kerak. Bunday hollarda, bizningcha, ota-onaga moddiy va ruhiy yordam ko'rsatish kerak. Aynan shunday vaziyatda NNTlari yordam keladi: moddiy ko'mak beradi, psixologik motivatsion treninglar tashkil etadi.

NNTlar faoliyati qanday qilib Ijtimoiy kapitalni shakllantiradi? Bizningcha, bu jarayonda sektorlararo sheriklikning inklyuziv ta'limdagi ahamiyati juda katta. Chunki inklyuziv ta'lim nafaqat maktab yoki davlatning vazifasi, balki butun jamiyatning ma'suliyatidir. Davlat ta'lim muassasalari ko'pincha moddiy-texnik bazani ta'minlashda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu bois, NNT va xususiy sektor sheriklik orqali qo'shimcha resurs, grant va texnologiyalar bilan yordam beradi. Davlat sektorining jamoat tashkilotlari bilan sheriklik o'rnatishi esa davlat tizimining legitimligini oshiradigan siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi. Jamoat tashkilotlari uchun bunday sheriklik tashkiliy rivojlanish, qo'shimcha resurslarga ega bo'lish, lobbizm mahoratining shakllanish, NNTning jamiyatda tan olinishi - statusining mustahkamlanishi bilan izohlanadi. Bizningcha, bu jarayon juda muhim, chunki NNTning kuchi

jamiyat bilan hamkorlikda namoyon bo'ladi. Mazkur sheriklik biznes sektori uchun ham brendining obro'sini yaxshilaydi, mahalliy bozorda unga bo'lgan ijobiy munosabat shakllantiradi, risklarni boshqarish imkoniyatini kengaytiradi. Bundan tashqari, yangi kadrlarni jalb qilish, ushlab turish va ularning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Shu orqali biznesning gumanizatsiyasiga xizmat qiladi [6]. Shunday qilib, bu sheriklik uch sektorga ham foyda keltiradi. Endi bu sheriklik inklyuziv ta'limga nima beradi? NNTlar xorijiy tajribalari olib kirib, mahalliy sharoitga moslashtiradi. Masalan, maxsus o'quv dasturlari, moslashtirilgan ko'rgazmali materiallar, axborot texnologiyalari orqali ta'lim imkoniyatlarini kengaytiradi. Bularning barchasi sektorlararo sheriklikda amalga oshiriladi.

Sektorlararo sheriklik O'zbekistonda qanday natijalarni olib keldi? Vazirlik va mahalliy NNTlar hamkorligida inklyuziv sinflar tashkil etildi. Rasmiy statistikaga ko'ra 2022-2023 o'quv yilida inklyuziv ta'lim joriy etilgan maktablar soni va ularga birlashtirilgan pedagoglar haqida ma'lumotlar e'lon qilindi - bu davlat va NNTlar hamkorligini amaliy natijasidir [6]. Xususiy sektorlar bilan esa qurilish kampaniyalari mahalliy biznes vakillari maktab va maktabgacha ta'limda pandus, lift va maxsus jihozlarni o'rnatishda homiylik qilmoqda. Bunda NNTlar loyiha konsepsiyasini ishlab chiqadi va nazoratni ta'minlaydi, xususiy sektor esa moliyaviy va texnik yordam ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, inklyuziv ta'lim – nafaqat davlatning, balki butun jamiyatning mas'uliyatidir. Nogironligi bor bolalarga ta'lim berishda davlat resurs va imkoniyatlar yaratib berar ekan, NNTlar va xususiy sektor ham o'z hissasini qo'shishi zarur. Biz ishonamizki, sektorlararo sheriklik nafaqat moddiy-texnik bazani mustahkamlaydi, balki ota-ona, mahalla va jamiyatning ongida ham inklyuzivlikni qaror toptiradi. Biz uchun eng muhim jihati – har bir bola, imkoniyati qanday bo'lishidan qat'i nazar ta'lim olishga va o'z tengdoshlari bilan bir safda rivojlanishga haqli ekanligini tan olishdir. Bu jarayonda har bir insonning hissasi muhim, chunki kichik ko'mak ham katta natijaga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekistonda 1 mln nafardan ortiq nogironligi bo'lgan shaxslar bor — IHMA <https://www.gazeta.uz/oz/2025/04/15/disability/>
2. Academician Akmal Saidov on ratification by Uzbekistan of the Convention on the Rights of Persons with Disabilities
3. <https://www.uzembassy.uk/new.com>
4. Sanjar Saidov. Ijtimoiy kapital-fuqarolik jamiyatining muhim mezon. –Toshkent: Kafolat print company, 2019. (176-b, 12-bet, 15, 16, 28, 77)
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://constitution.uz/en/clau.com>
6. ASEAN Journal of Community Service and Education.
7. <https://ejournal.bumipublikasinasantara.id/index.php/ajcsne>
8. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan inklyuziv ta'lim sohasida amalga oshirilgan ishlar. https://uzedu.uz/uz/news/1271?utm_source